

## Ekstremizm, terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid

Hozirgi kunda yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo hamjihatlikni saqlash, barkamol yoshlarni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. Shu bois yoshlarni zararli illatlardan himoya qilish, ular o'rtaida ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli vazifalarga va salbiy illatlar ogibatlarini tushuntirishga oid ishlarni jadallashtirishga davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan muhim e'tibor qaratilmoqda. Bugungi pandemiya sharoitida ham talaba-yoshlarimizni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida, aynan iqtidorli talabalarimiz takliflaridan kelib chiqib, bugun biz "Ekstremizm, terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazishni rejalashtirdek. Bugungi Onlayn-tadbirga "Yer resurslarini boshqarish" fakulitet dekani Sh.Narbaev, institut matbuot kotibi R.Jumaniyozov va fakulitetning Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini X.Eshova moderatorlik qildi. Tadbirda fakulitetning professor-o'qituvchilar, talabalar-yoshlari, xohlovchilar hamda Toshkent shahar M.Ulug'bek tumani bo'yicha IIO FMB Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Abdujabbarov Doniyor Dadaxodjaevich, Mirzo Ulug'bek tumani IIO FMB TEQKB xodimi mayor S.A.Tajidinovlar tadbir mehmoni sifatida ishtirot etishdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar "Ekstremizm, terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid" muammosi jamiyat, millat ravnqaqiga jiddiy putur yetkazuvchi bo'lib, hozirgi dunyo davlatlarini tashvishga solib kelmoqda. Shu sababli ham dunyoda millionlab insonlar hayotdan bevaqt ko'z yummoxda. Qayd etilganidek, diniy ekstremizm va terrorizm ma'naviy tahdidlarning bir turi bo'lib, ular asosan yoshlar orqali vayronkor g'oyalarni harakatlantiruvchi, mamlakatdagi tinchlik va osoyishtalikni izdan chiqarishga intiluvchi, mavjud konstitutsion tuzumni ag'darib tashlashga da'vat etuvchi tajovuzkor siyosiy faoliyatdir. Bugungi kunda internet tizimida yuzlab terroristik saytlarning aniqlangani o'ta xavotirli holatdir. Ular internet tizimi orqali o'zlarining diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik kabi turli buzg'unchi g'oyalarini targ'ib etmoqda.



Ming afsuski, mafkuraviy immuniteti shakllanmagan ayrim yoshlar bu yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishmoqda. Ushbu davra suhbatidan ko'zlangan maqsad ham dunyoning turli mintaqalarida ziddiyatlar, begarorlik kuchaygan, ixtiloqlar davom etayotgan bir sharoitda yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan himoya qilishdir. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish uchun aholi, ayniqsa, yoshlarimizda g'oyaviy, mafkuraviy immunitet hosil qilish darkor, — dedi Toshkent shahar M.Ulug'bek tumani bo'yicha IIO FMB Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Abdujabbarov Doniyor Dadaxodjaevich, — Bunday yot oqimlarning ta'siriga tushib qolmaslik uchun, avvalo, milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarashni shakllantirish lozim. Qolaversa, so'nggi yillarda aqidaparast, diniy ekstremistik oqimlar o'z g'oyalarini yoshlar ichiga kengroq kirib borish, mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, vayronkor mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, internet orqali targ'ibot o'tkazish kabi usullarda amalga oshirmoqda deb ma'lumot berib o'tishdi. Shuningdek, tadbirda fakulitetining Yerdan foydalanish kafedrasi professori A.Altiev, shu kafedrani katta o'qituvchisi A.Muqimov kabi professor-o'qituvchilar hayotiy misollar bilan talaba-yoshlarga kerakli ma'lumotlar berib o'tishdi. Tadbir so'ngida qimmatli vaqtini ayamay ZOOM platformasi orqali bizga o'z ma'ruzalari bilan ishtirot etganliklari uchun minatdorchilik bildirib, bunday tadbirlarni yanada ko'proq hamkorlik asosida o'tkazish rejalashtirildi. Bugungi Onlayn-muloqot tarzida bo'lib o'tgan tadbirda talaba-yoshlar mutaxassislardan o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob oldilar.

**TIQXMMI matbuot xizmati**